XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDAGI BA'ZI QO'SHMA SO'ZLARNING TARKIBIY TAHLILI

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU prof. v.b., DSc
E-mail: norbayeva1975@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20270421

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm shevalari leksikasida qo'shma so'zlarning tutgan o'rni va ularning tuzilishi, kelib chiqishi hamda adabiy til bilan munosabatlari tahlil qilinadi. Xorazm shevalarida qo'shma so'zlar deyarli barcha so'z turkumlari doirasida uchrab, ular til tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida qaraladi.*

Kalit so'zlar: *morfologik tarkib, sheva, ko'chma ma'no, adabiy til, qo'shma so'z.*

Аннотация. *В статье анализируется место сложных слов в лексиконе хорезмских диалектов, их структура, происхождение и связь с литературным языком. В хорезмских диалектах сложные слова встречаются практически во всех частях речи и рассматриваются как продукт исторического развития языка.*

Ключевые слова: *морфологическая структура, диалект, переносное значение, литературный язык, сложное слово.*

Abstract. *The article analyzes the place of compound words in the lexicon of Khorezm dialects, their structure, origin, and relationship with the literary language. In Khorezm dialects, compound words occur in almost all word classes and are considered a product of the historical development of the language.*

Keywords: *morphological structure, dialect, figurative meaning, literary language, compound word.*

Kirish. Xorazm shevalari leksikasining muayyan qismini tarkiban murakkab tarkibli so'zlar tashkil qiladi. Murakkab tarkibli so'zlar o'z navbatida quyidagi turlarga ajraladi: a) qo'shma so'zlar b) juft so'zlar; d) takroriy so'zlar.

Biz ushbu maqolamizda Xorazm shevalari leksikasidagi ba'zi qo'shma so'zlarni tahlilga tortamiz. Bizga ma'lumki, qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida aslida ikki va undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazardan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qism (morfema)lar sanaladi.

Xorazm shevalari leksikasi tarkibiy tahlilining nafaqat shevalar leksikasini, balki xalq shevalari va adabiy til o'rtasidagi tarixiy aloqalarni o'rganish kabilarda muhim o'rni bor.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida o'zbek dialektologiyasi va leksikologiyasiga oid ilmiy manbalar, xususan Xorazm shevalari lug'aviy tarkibini

o‘rgangan tadqiqotlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. F. Abdullayev, O. Madrahimov kabi olimlarning ishlari shevalardagi leksik birliklarning shakllanishi, tarixiy ildizlari va adabiy til bilan munosabatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, klassik manbalar va izohli lug‘atlar (jumladan, Alisher Navoiy asarlari tili materiallari) qo‘shma so‘zlarning semantik va etimologik jihatlarini aniqlashda asosiy manba sifatida qo‘llanildi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm shevalaridagi qo‘shma so‘zlarning morfologik va semantik xususiyatlari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va komponent tahlil usullaridan foydalanildi. Xorazm shevalariga oid leksik birliklar morfologik tarkibi va semantik xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilinib, adabiy til birliklari bilan qiyoslandi. Shuningdek, qo‘shma so‘zlarning shakllanishi va taraqqiyoti tizimli yondashuv asosida o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Xorazm shevalari leksikasida mavjud qo‘shma so‘zlarning morfologik tarkibi hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazardan turli so‘z turkumlaridan tashkil topgan. Bularni shartli ravishda quyidagicha ajratish mumkin:

1. ***Ot+ot*** tarkibli dialektal leksika o‘rganilayotgan hudud shevalari leksikasining asosiy qismini tashkil qiladi. Bunga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Tashtavan (toshtovon) tosh va tovon qismlaridan tashkil topgan. U mo‘kkiga o‘xshash kalta etik bo‘lib, u pishiq charmdan, ba’zan past poshnali qilib tikilgan. Poshnasiz va tumshug‘i qayirib tikilgan *uyurtma etik* uning bir turidir. Poychaki poyafzali xom teri bo‘lagidan tashqi chokli qilib, qo‘nji tizza barobar tikiladi. Poychaki uzun ip bilan to‘piqdan bog‘lanadi.

XX asr boshidan fabrikada ishlab chiqarilgan past poshnali va uchli yopiq tumshuqli rezina kalishlar kavushlarni siqib chiqara boshlagan. Rus fabrikalari ularni O‘rta Osiyoda sotish uchun ishlab chiqargan. Charm kavushlar urf-odatlar bilan bog‘liq libos tarkibida saqlanib qolgan.

Arqäyin – Xorazm shevalarida “xotirjam” ma’nosini anglatadi [2]. Mazkur dialektal so‘zni sof turkiy tillarga, xususan, o‘zbek tiliga oid *orqa* hamda *egin* so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan deyish mumkin. Ushbu birlikning tarkibida ikkita fonetik o‘zgarish ro‘y bergan. Leksema ikkita komponentdan iborat bo‘lib, jonli so‘zlashuv jarayonida har ikki komponentning yaxlit holda talaffuz qilinishi natijasida birinchisining oxirgi va ikkinchisining birinchi tovushlari o‘zaro assimilyatsiyaga kirishib a+e> ǽ shakliga kelgan yoki xuddi yetakchi va ko‘makchi fe’l ixchamlashishining teskarisi ro‘y bergan: *bora oladi – boroladi* kabi.

Talaffuzda *a* dominantlik qilgan va o‘sha pozitsiyani mustahkam egallagan. Leksemaning ikkinchi komponentidagi *g* undosh fonemasi shevalardagi fonetik

xususiyatlarga ko‘ra, *y* fonemasiga almashgan. Bunday fonetik hodisa (*bek › beg › bey*) turkiy tillarda faol kuzatiladi.

Apabiyi (opobiyi) qarindoshlik terminlaridan hisoblanib, opa+biyi qismlaridan tashkil topgan. Mazkur so‘z nutq jarayonida o‘zidan katta ayollarga nisbatan hurmat ma’nosida ishlatiladi: *Apabiyim bilän gäpläşdik.*

Araqsavun – aroq+sovun tarkibidan iborat bo‘lib, adabiy tilda yuvinish uchun mo‘ljallangan atir sovunga nisbatan qo‘llanadi: *Apam äkkälgän araqsavunni isi dìm mazzi äkän.* (Xv., H.zrsp.)

Astardeş – astar+desh. Bundagi *astar* ichki, *desh* tashqari tomonidan qo‘yilgan matoni bildirib, ichiga paxta solinmagan kurta, chopon, ko‘rpachalarga nisbatan ishlatiladi. Misol: *Körpäčälärä astardeş qoyìb tik.*

Xorazm shevalari leksikasidagi ba’zi ot+ot tipidagi qo‘shma so‘zlar narsaning turi ma’nosini anglatadi. Masalan, *ancìr şäptalì* (anjir shaftoli) – shaftoli turi bo‘lib, anjir+shaftoli qismlaridan iborat. Misol: *Qoŋìşìlärìmìz özlärinìŋ bayìndäki ancìr şäptalìsìnnan bizäräm alìb čìqìbdila.*

Aşkädi – oshqovoq, qovoq turi: *Aşkädi salìb mazzì ätib bir mantì pişiris gäräk.* (Shvt., Urg., Xnq., G.rln., Xv., Y.bzr., H.zrsp., Bg‘t., Q.kpr.).

Xorazm shevalarida mavjud qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligi ko‘chma ma’no kasb etadi. Jumladan, *änäqoy* (Xv., Urg., Xnq., Q.kpr). Ushbu so‘z ona va qo‘y so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lib, hudud shevalarida o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi. Mazkur so‘z Xorazm shevalarida ko‘chma ma’noda ishlatilganda, asosan, qizlarni erkalash uchun qo‘llaniladi: *Eşikdän ìndi girödim apam: – Änäqoy, gäldiŋmi? – dädi.*

Xorazm shevalarida ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi bunday qo‘shma so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Mana shunday so‘zlardan biri *anäxatìn=änäqutì* bo‘lib, ona+xotin, ona+quti so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Mazkur so‘z kayvani, ya’ni o‘zi yosh bo‘lishiga qaramasdan xuddi yoshi ulug‘lardek boshqalarga aql o‘rgatib gapiradigan, ulardek ish qiladigan yosh qizchalarga nisbatan qo‘llanadi (Xv., Xnq., Bg‘t., Urg.). *Qöŋìşlanì kičkinä qizi dìm änäxatìn qìlìqla ätädi.*

Ärkäkgäşir=ärkäkşada (Xv., Urg., Xnq., Q.kpr). – (arkakgashir, arkakshoda) – erkak+gashir (sabzi) hamda erkak+shoda qismlaridan iborat bo‘lib, ko‘chma ma’noda erkaklarga o‘xshash xatti-harakat qiladigan ayollarga nisbatan ishlatiladi: *Mäptun dìm ärkäkgäşir qiz bolcäk kättä bolsa.*

Atağìz - ot+og‘iz – ombur, mix sug‘urish, narsalarni qisib ushlash, ko‘tarish, egish, sindirish kabi ishlar uchun qo‘llanadigan ikki jag‘li asbobning umumiy nomi (Xv.). Bizning fikrimizcha, ushbu asbob nomi o‘xshahlik asosida yuzaga kelgan, ya’ni otning og‘ziga qiyos qilingan.

Ot+ot tipidagi qo‘shma so‘zlarga hudud shevalaridan ko‘pchilik misollar keltirish mumkin: *atbazar (otbozor), avzibirčilik* (og‘zibirchilik – hamjihatlik, birdamlik, yakdillik, hamnafaslik, bir-birini qo‘llash ma’nosida), *axtaxana* (oxtoxona – molxona, og‘ilxona, mol boqiladigan, turadigan bino; mollarni qo‘yish uchun mo‘ljallangan joy), *aynacāy* (oynojoy – derazaning old qismi, tokcha), *aşagarĭ=eşagarĭ* (eshakari – qovog‘ari, arining katta turi), *aşxana* (oshxona –ovqat tayyorlash uchun moslangan maxsus xona), *āvlabaş=āvliyobuva* (qabriston), *balčiŋirik* (shakarqamish, qand shakarmoddali, ko‘p yillik o‘simliklar turkumi), *baqačanaq* (chig‘anoq, ba’zi umurtqasiz jonivorlarning, masalan, mollyuskalarning turli shaklda bo‘ladigan kosasi; ularning tanasini ko‘plab, himoya vazifasini bajaruvchi skelet tuzilmasi, ko‘pincha o‘xshatish ma’nosida ishlatiladi), *başuci* (bosh tomoni, *belbuv=belbav= belvāğ* (belga bog‘lanadigan, to‘rtburchak ro‘mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi, qiyiq, qiyiqcha), *beşikortik* (beshik ustiga yopiladigan chit, mato), *eşäkdiş* (eshaktish - usti jag‘ning oldingi qismida bo‘ladigan tishlar) va hokazo.

2. ***Fe’l +fe’l*** tipidagi dialektal leksika. Xorazm shevalari leksikasi tarkibida ham bunday qo‘shma so‘zlar mavjud. Masalan, *ä:pkäldi=äkkäldi= ä:pkildi* (olib kelmoq), *äppär// äppäribär* (olib ber), *aqqalmaq* (olib qolmaq), *a:ččĭq=apčĭq* (olib chiqmoq, biror bir narsani o‘zi bilan olib chiqmoq) kabi.

3. ***Sifat + sifat*** tipidagi dialektal leksika: *aqtaqir* (oqtaqir – ekin ekilmagan taqir yer), *āğĭrsāldāmlĭ* (og‘ir-bosiq, o‘zini tuta biladigan, og‘ir, vazmin; sipo) kabi.

4. ***Sifat + ot*** tipidagi dialektal leksika: *accĭburč* (achchiq qalampir), *alaböci* (olabo‘ji – afsonaviy qo‘rqinchli maxluqot), *aqbalĭq* (oq baliq –baliq turi, suzgichlari bo‘lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mabsub baliq), *aqnavat* (oqnovvot – yozgi qovun navi; rangi oq, po‘chog‘i to‘rsiz, yupqa, shakli uzunchoq, shirin qovun), *aqqaş* (oqqosh – kuzgi nav qovun; mayda to‘rli, rang oq-ko‘kimtir, shirin qovun), *asmaşorva* (osmasho‘rva – ko‘p vaqt davomida go‘shtning suyak qismi ajratib olib, qaynatilib pishiriladigan ovqat turi), *ācidaş* (achchiqtosh – alyuminiy, xrom, temir singari metallarning sulfat kislota bilan o‘zaro ta’siridan hosil bo‘lgan tuzlar (ko‘n sanoatida va tibbiyotda qo‘llanadi), *ālapasĭrdĭ* (g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron, to‘polon, qiy-chuv), *ālāxummā* (qovun turi, hajmi katta, kechpishar qovun nomi), *āsmā uqĭl* (osma ukol), *basmačäynik* (bosmachoynak - suv solish va qaynatish uchun mo‘ljallangan sirli choynak.

5. ***Ot + sifat*** qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan dialektal leksika: *avzačiq* (og‘zi ochiq – sir saqlay olmaydigan, sodda odam), *ayaqalaŋ=ayaqyalaŋ* (oyoqyalang – oyoq kiyimsiz, oyog‘iga hech narsa kiymagan), *başĭqarangğĭ* (boshqorong‘i) kabi.

6. ***Ot + fe'l*** ko‘rinishidagi dialektal leksika: *äsäbbïzar* (asabbuzar), *atamagäyän* (otamga kelgan – salbiy ma’no ifodalovchi so‘z, so‘kish va qarg‘ish), *aŋï qačmaq* (ongi qochmoq – esankiramoq ma’nosida), *däp bolmaq* (daf bo‘lmoq – yo‘q bo‘lmoq, ko‘zdan yo‘q bo‘lmoq), *düşïgä gïrmaq* tushiga kirmoq – tushiga kirmoq, tushida ko‘rmoq), *dözim bärmaq* (to‘zim bermoq – sabr-u toqat, chidam, qanoat, bardosh bermoq), *el bolmaq* (el bo‘lmoq – hamma bilan bir xilda kelishib ketish, hamjihat bo‘lmoq), *eyälik ätmaq* (egalik etmoq – egalik qilmoq, ega bo‘lmoq) kabi.

7. ***Fe'l + ot*** tipidagi dialektal leksika: *aqarsuv* (oqar suv **–** suvning toza bo‘lib oqib turadigan joyi).

8. ***Son + ravish*** tipidagi dialektal leksika: *bïrjannän* **(**biryondan] – bir boshdan, boshidan to oxirigacha; tugal, batamom, batafsil), *bïrmälli=birvaxli* (bir mahal – to‘satdan, xayolga kelmagan holda; kutmaganda, sezdirmay turib birdan, dabdurustdan).

9. ***Olmosh + ravish*** tipidagi dialektal leksika: *änyaqā* (u yoqqa), *biyaqa* (bu yoqqa) kabi.

10. **Ravish+sifat** tipidagi dialektal leksika: *äşşädäraz=eşşädäraz* (ashshadaroz, eshshadaroz **–** haddan tashqari novcha, uzun), *ezälï qadim* **(**azaliy qadim **–** azaldan, avvaldan, o‘tgan vaqtlar(da), hozirga qadar; ilgari) kabi.

11. **Ravish + ot** tipidagi dialektal leksika: ***altaxta*** **(old taxta – e**shak aravaning old qismi), *däpä gűrrïŋ* (ikki va undan ortiq kishi o‘rtasidagi o‘zaro so‘zlashuv; musohaba; gurung, biror mavzuda eshituvchilar bilan fikr almashinuv, savol-javob tariqasida o‘tkaziladigan mashg‘ulot, muloqot).

12. **Ot + ravish** tipidagi dialektal leksika: *bāxtäräp=bağtäräp* **(**bog‘ taraf – uyning orqa qismi, bog‘ tomoni).

13. **Ot + modal** so‘z tipidagi dialektal so‘zlar: *aŋgudik=aŋïjoq* (ongi yo‘q – anqov, es-hushini yo‘qotgan), *āŋāsov* (es-hushini ha deganda yig‘ib ololmaydigan, parishonxotir kishi) kabi.

Xulosa. Xorazm shevalari leksikasidagi qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyoti, xalqning turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Ularning morfologik tarkibi rang-barang bo‘lib, deyarli barcha so‘z turkumlari asosida shakllanganligi sheva leksikasining boy va tizimli ekanini ko‘rsatadi. Tahlillar natijasida qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligi ko‘chma ma’no asosida yuzaga kelgani, nominativ va ekspressiv vazifalarni birgalikda bajarishi aniqlandi. Shuningdek, mazkur birliklar adabiy til bilan uzviy aloqada rivojlanib, ayrimlari umumtilga singib ketgan bo‘lsa, boshqalari hududiy xususiyat sifatida saqlanib qolgan. Shu jihatdan, Xorazm shevalaridagi qo‘shma so‘zlarni o‘rganish

nafaqat dialektologiya, balki umumiy tilshunoslik va tarixiy leksikologiya uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.– Тошкент: Фан, 1961.
2. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч, 1999.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 2 - том.– Тошкент: Фан, 1987.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984.
5. Шамсиддин Муҳаммад бин Халаф Табризий. Бурҳон-и қотеъ. – Теҳрон: Амири кабир.
6. Халидов Б.З. Об этимологии слова таннур // Труды ТашГУ. – Ташкент, 1965.
7. Персидско-русский словарь. Том 1. – М.: Русский язык, 1983.
8. Новейший англо-русский, русско-английский словарь. – М., 2011.